

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TURABOV ABDURAYIM MALIKOVICH

KICHIK SINTAKSIS MUAMMOLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)

Turabov Abdurayim Malikovich

Kichik sintaksis muammolari 5

Турабов Абдурайим Маликович

Проблемы малого синтаксиса 33

Turabov Abdurayim Malikovich

Small Syntax Issues 67

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 72

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TURABOV ABDURAYIM MALIKOVICH

KICHIK SINTAKSIS MUAMMOLARI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Fil407 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga va «ZiyoNET» axborot-ta’lim portaliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Turniyozov Nigmat Qayumovich**
Filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Eltazarov Jo‘liboy Donaboyevich**
Filologiya fanlari doktori, professor

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Usmonova Huriniso Sharopovna
Filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.27.06.2017.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil _____ soat____da majlislar zalida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366)239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz)

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366)239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “__” _____ tarqatildi.
(2023-yil “__” _____dagi _____reyestr raqamli bayonnomasi)

M.Q.Muhiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

D.Xursanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

D.B.O‘rinboyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugungi kunda kichik sintaksis nazariyasi bo'yicha derivatsion, morfo-sintaktik, struktur-semantik, izomorfizmik va presuppozitsion aspektidagi yondashuvlar til va nutqni paradigmatic va sintagmatic qonuniyatlarga tayangan holda yaxlit tizim sifatida o'rganishga intilish kuchaymoqda. Yasama so'zni kichik sintaksisning qurilish materiali sifatida baholash, sintagmatic qatorda vujudga keladigan so'z ichki tuzilishi jarayonidagi sintaktik munosabat modellari kichik sintaksis birliklarini neolingvistik aspektida, o'zaro sintagmatic va sintaktik munosabatlarining turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilishi dolzarblilik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida sintaksis va uning tekshiruv obyektlarining munozarali masalalarini aniqlash, sintaksisni morfologiya va sintaksisning kesishuvida o'rganish an'anaga aylanib bormoqda. Buning natijasida tilshunoslikda "kichik sintaksis", "katta sintaksis", "so'z sintaksisi", "matn sintaksisi" kabi atamalarining vujudga kelishi va bu atamalar sintaksisni u yoki bu jihatdan o'rganuvchi sohalarning nomlari sifatida e'tirof etilmoqda. Kichik sintaksis masalalari va so'z sintaksisi muammolarini, morfo-sintaktik tadqiqotlar doirasida o'rganish orqali muammoning nazariy jihatlarini to'liq asoslash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, o'zbek tilshunosligida kichik sintaksis voqelangan modellar tizimi hodisasini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Zero, "O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli xalq boshqalarning tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi"¹. Bu esa o'z navbatida tilshunoslar zimmasiga o'zbek tilshunosligi sohasida ham chuqur va yangicha izlanishlarda tadqiqotlar olib borishni taqozo etib, jahon ilmiy tadqiqot standartlari asosida o'zbek tilining keng ifoda imkoniyatlarini ko'rsatib berish vazifasini yuklaydi. Shuningdek, kichik sintaksisning bugungi holatini yaxlit tizim sifatida o'rganish o'zbek tili grammatikasining umumiy qismlarini ilg'or zamonaviy lingvistik tadqiqotlar yo'nalishida qayta ko'rib chiqish bugungi o'zbek tilshunosligi oldidagi dolzarb vazifa ekanligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son–Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiyada bildirilgan fikr mulohazalar muayyan darajada manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy,

¹ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. –Б.35.

huquqiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Kichik sintaksis masalalariga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning nufuzli ilmiy markazlarida, jumladan, University of Harvard (AQSH); Universiteit van Amsterdam (Gollandiya); Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasi (Rossiya), Rossiya davlat gumanitar universiteti Lingvistika instituti (Rossiya); Novosibirsk davlat universiteti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston); shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida kichik sintaksisning nazariy asoslarini ishlab chiqish, sintaktik va semantik jihatlarini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar negizida quyidagi ilmiy natijalar olingan, jumladan, kichik sintaksisning nazariy asoslari ishlab chiqilgan (University of Harvard, AQSH); turg'un so'z birikmalari shaklidagi frazemalar turlari ochib berilgan (Universiteit van Amsterdam (Gollandiya); sintaktik derivatsiyasi kompleks birliklarining iyerarxiyasi aniqlangan (Kemerovo derivatologiya maktabi Rossiya); sintaktik so'z yasash tipi, ichki sintaksis birliklari, murakkab so'zlar, so'z birikmalari hamda ularning derivatsion xususiyatlari (Wsztechnica Polska Szkola Wyzszaw Warszawie, Polsha; Rossiya davlat gumanitar universiteti, Lingvistika instituti, Rossiya); so'zlarning semantik xususiyatlari va parafrazalarning sintaktik shakllanishini batafsil tavsiflangan (Novosibirsk davlat universiteti (Rossiya), Sankt Peterburg davlat universiteti, (Rossiya); so'z birikmalari qolipidagi sintagmalarning sintaktik shakllanishi va uning atrofidagi semantik jarayonlar aniqlangan (Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limi Filologiya instituti, Rossiya; Kemerovo dervatologiya maktabi, Rossiya); yasama so'zlarning derivatsiyasi va til tizimini modellashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan (Rossiya Federatsiyasi Fanlar akademiyasi); sintaktik so'z yasash va turg'un so'z birikmalari sintaktik shakllanishi ochib berilgan (Qozoq milliy universiteti, Qozog'iston); yasama so'zlar derivatsiyasi masalalari yoritilgan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O'zbekiston).

Bugungi kunda jahon tilshunosligida kichik sintaksis tizimining nazariyasiga bog'liq muammolar tadqiqi doirasida, asosan, sintaktik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarda bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda: kichik sintaksisning ahamiyati sodda yasama va qo'shma so'zlar, ularning derivatsion xususiyatlarini aniqlash; murakkab so'zlar va so'z birikmalari hamda ularning derivatsion xususiyatlari, so'z birikmalari qolipidagi sintagmalarning sintaktik shakllanishini tadqiq etish; turg'un so'z birikmalari, turg'un so'z birikmalari shaklidagi frazemalar va parafrazalarning sintaktik shakllanishini belgilash; kichik

²Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи www.universityofcalifornia.edu, www.harvard.edu, www.uva.nl, www.ox.ac.uk, www.ruslang.ru, www.kem.su, www.wsztechnicapjlska.edu.pl, www.rsuh.ru, www.nsu.ru, www.spbu.ru, www.philology.nsc.ru, www.dic.academic.ru, www.kaznu.kz, www.navoiy-uni.uz, www.tai.uz сайт ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

sintaksis birliklarining sistemaviy tahlilini berishda ularni paradigmatic va sintagmatic munosabatlari asosida tavsiflash, kichik sintaksis tizimining derivatsion qonuniyatlarini ochib berish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida XX asrda sintaksisni katta va kichik sintaksisga bo'lib o'rganish uning lingvistik tabiati yuzasidan tavsifiy, sintaktik va semantik xarakterdagi ko'plab tadqiqotlar yaratildi. Kichik sintaksis voqelangan modellar tizimining lingvistik tabiati tadqiqi semantik nuqtai nazardan ham, sintaktik nuqtai nazaridan ham tilshunoslar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Shu bilan birga, kichik sintaksis, asosan, so'z sintaksisi taraqqiyotining turli jihatlarini yoritishga bag'ishlangan juda ko'p masalalar maxsus tadqiq qilinmagan.

Kichik sintaksis jahon va o'zbek tilshunosligida asosan quyidagi yo'nalishlarda tadqiq qilingan. Kichik sintaksisning til birligi sifatidagi maqomini aniqlashga bag'ishlangan izlanishlar Ch.F.Fillmore, K.Sugayama, R.Gudson, A.Goldberg, E.V.Raxilina, L.L.Iomdin, B.L.Iomdin, V.V.Vinogradov, A.M.Peshkovskiy, Y.D.Apresyan, E.Kurilovich, Ye.S.Kubryakova, A.G'ulomov, A.Hojiyev, N.Turniyozov, M.Chetin³ va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Kichik sintaksisning sintaktik va derivatsion jihatlariga aloqador masalalar K.A.Levkovskaya, Ye.S.Kubryakova, V.B.Kasevich, V.P.Jukov, P.A.Lekant, M.K.Sharipov, L.N.Murzin, M.N.Yansenetskaya, A.Hojiyev, M.Abuzalova, X.Xayrullayev⁴lar tomonidan o'rganilgan.

³ Fillmore Ch.F. The Mechanisms of Construction Grammar. In: Proceedings of the Fourteenth Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society 1988, 35-55., Kensei Sugayama Word Grammar: New Perspectives on a Theory of Language Structure, et al., 2006. ISBN 0-8264-8645-2., Goldberg A. A Construction Grammar Approach to Argument Structure. University of Chicago Press, -Chicago 1995. -271 p., Рахилина Е.В. Лингвистика конструкций. Азбуковник, -Москва 2010. -584 с., Иомдин Л.Л. Большие проблемы малого синтаксиса. // Труды международной конференции по компьютерной лингвистике и интеллектуальным технологиям. Протвино 2003, 216-222., Иомдин Л.Л. В глубинах микросинтаксиса: один лексический класс синтаксических фразем. // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международной конференции. Бекасово, 4-8 июня 2008 г. Издво РГГУ. Москва 2008, 178-184., Иомдин Л.Л. Некоторые микросинтаксические конструкции в русском языке с участием слова что в качестве составного элемента. Словенский филолог LXIX, 2013, 137-147., Иомдин Л.Л., Иомдин Б.Л. Выражение валентностей русских предикатных существительных в некоторых микросинтаксических конструкциях. Люблина 2014, 31-32., Виноградов В.В. Избранные труды: Лексикология и лексикография. -М.: Наука, 1977. -312 с; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 8-е изд. - Москва: Языки славянской культуры, 2001 . -545 с.; Апресян Ю.Д. Лексическая семантика (Синонимические средства языка). 2-е изд. -М 1995. 367 с.; Курилович Е. Деривацион лексическая и деривация синтаксическая //Очерки по лингвистике. - М., 1962. -С.61.; Кубрякова Е.С. Теория номинации и словообразование // Языковая номинация. -М., 1977. - С.241.; Фуломов А. Сўз ясашиши // Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. -Тошкент, 1975, 33-бет; Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими. -Тошкент, 2007, 29-бет.; Турниёзов Н. Тил унсурларининг микросинтагматик муносабатлари хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, № 5, 26-бет.; Четин М. Ҳозирги ўзбек ва турк тилларида сўз бирикмаси синтактик деривацияси // Филол. фан. номз... дисс. автореф. - Тошкент, 2002. -24 б.

⁴ Левковская К.А. Теория слова, принципы её построения и аспекты лексического материала.-М.:Высшая школа, 1962.-296 с.; Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия // Вопросы языкознания.-1974. - № 5.- С. 64-76.; Касевич В.Б. Семантика. Синтаксис. Морфология. -М., 1988. -С.161.; Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. -М., 1978. -160 с.; Лекант П.А. О форме словосочетания // Русский язык в национальной школе. 1967. № 2. С. 12-15.; Шарипов М.К. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи, -Тошкент, «Фан» нашриёти, 1978, 88 бет.; Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. - Пермь, 1984. -С.42; Яценецкая М.Н. Семантические вопросы теории словообразования. -Томск: Изд-во Том. ун-та, 1979. -242 с.; Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими.-Тошкент, 2007. 29-бет; Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilishi qolip va uning nutqda voqelanishi: filol.fan. nomz.... diss. - Т., 1994. - 134 б; Хайруллаев Х. Тил бирикларининг поғонали муносабати. -Тошкент, 2008. -100 б.

O'zbek tilidagi kichik sintaksisni tashkil etuvchi komponentlar o'rtasidagi munosabatlar tabiati bo'yicha A.G'ulomov, A.Hojiyev, I.Qo'chqortoyev, Sh.S.Rahmatullayev, M.Mirtojiyev, A.Berdialiyev, N.Turniyozov, H.Ne'matov, R.Rasulov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, B.Yo'ldoshev, M.K.Sharipov, S.Shodiyev⁵ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavjud.

N.Turniyozov tomonidan yozilgan "Nazariy grammatikadan ocherklar" qo'llanmasining birinchi bobi "Kichik sintaksis va uning tekshirish obyekti haqida" deb nomlanib, unda ana'naviy qarashlardan farqli tarzda, o'zbek tilshunosligida dastlab kichik sintaksis haqida ma'lumot berilgan⁶.

Shuningdek, N.Turniyozov rahbarligida faoliyat yuritayotgan Samarqand derivatologiya maktabi vakillari X.Xayrullayev, B.Turniyozov, Sh.Turniyozova, A.Rahimov, F.Shodiyev, G.Karimova, S.Shodiyev, N.Mahmudova, R.Samandarov va boshqalarning ishlarida u yoki bu jihatdan kichik sintaksis masalalariga bevosita ekskurs qarashlar bayon qilingan.

Lekin shu kunga qadar o'zbek tilidagi kichik sintaksis monografik planda to'lig'icha o'rganilmagan. Shu bois mazkur ish o'zbek tilidagi kichik sintaksis muammolari tadqiqiga bag'ishlanmoqda.

O'zbek tili taraqqiyotining bugungi bosqichida kichik sintaksis tadqiqidagi ko'pgina munozarali muammolarni hal qilish yo'li va usullarini belgilash kabi masalalarni tadqiq etish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, tadqiqotda so'z va so'zga teng keluvchi birliklarni kichik sintaksis obyekti sifatida tadqiq qilinishi asos qilib olingan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot rejasining "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o'zbek tili materiali asosida kichik sintaksisni tizimlashtirishning nazariy asoslarini belgilash bilan birga, sintaktik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni jahon va o'zbek tilshunosligidagi ilmiy adabiyotlar orqali sistemalashtirib, tanqidiy ochib berish;

5 Gulomov A. S'uz yasaliши // Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. –Тошкент, 1975, 33-бет.; Хожиев А. Ўзбек тили с'уз yasaliши тизими. –Тошкент, 2007, 29-бет.; Кучкортоев У. С'уз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутк феъллари материали асосида). –Тошкент, 1977. 10-бет.; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. –Тошкент, 2006, –22-бет.; Миртожиев М.М. Туркий туб с'узлар тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2017. –400 б.; Бердиалиев А. Ўзбек тилида таркиби синтагматик номутаносиб с'уз бирикмалари. Монография. –Хўжанд:"Меърож". 2019; Турниёзов Н., Турниёзов Б., Турниёзова Ш. Ўзбек тили деривацион синтаксиси. –Тошкент, 2011, 129-бет.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент, 1995. 37-бет.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис) – Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1995. –149 б.; Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, 1992. –297 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек тилида конвенционал турғун бирикмаларнинг структурал-грамматик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, № 3, 66-бет.; Шарипов М.К. Ҳозирги ўзбек тилида с'уз бирикмалари синтаксиси масаласи, –Тошкент, «Фан» нашриёти, 1978. –88 бет.; Шодиев С. Турғун с'уз бирикмаларининг синтактик деривацияси. Фил. фанл. б.фал.док. (PhD) дисс. автореф. –Самарқанд, 2020. –46 бет.

⁶ Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. –Самарқанд, 1998. 4-16 бетлар.

kichik sintaksis obykti tarkibiga kiradigan lingvistik maydonini belgilash va ichki sintaksis voqelangan modellar tizimining derivatsion xususiyatlarini dalillash;

sintaktik munosabatlar paketlarining shakllanishi terminologik asoslarini tizimlashtirish va o'zbek tili materiallari asosida kichik sintaksis tizimini ochib berish;

so'z sintaksisi muammolarini ilmiy talqin qilish, operand, operator va derivatlarni belgilashning aniq va doimiy mezonini ilmiy asoslash va o'zbek tilida operator yordamida kichik sintaksis jarayonida yuzaga keladigan sintaktik hodisalarni aniqlash;

sintaktik birliklarni tahlil qilishda tilshunoslikning sintaksis bo'limini so'z birikmasi sintaksisidan emas, balki so'z sintaksisidan boshlash zarur ekanligini isbotlash.

Tadqiqotning obykti sifatida hozirgi o'zbek tilida kichik sintaksis voqelangan modellar tizimi bo'lib kela oladigan til birliklari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini kichik sintaksisda yasama so'zlar, qo'shma, juft, takroriy, murakkab so'zlar, turg'un so'z birikmalari, turg'un so'z birikmalari shaklidagi frazemalar va parafrazalarning sintaktik shakllanishi, nosintaktik maqomdagi murakkab nominativ birliklar shuningdek, kichik sintaksis nazariyasiga oid manbalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda struktural tahlil, sintaktik derivatsiya, shuningdek, izomorflik, applikativ va transformatsion usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'zbek tilshunosligida so'z va matn ham sintaksisning tekshiruv obyektiga kiritilgandan so'ng, sintaksisning lingvistik maydoni kengayganligi sababli, katta va kichik sintaksisga bo'lish orqali an'anaviy tilshunoslikdagi qarashlarni derivatsion, izomorfizmik, presuppozitsiya aspektidagi yondashuvlar bilan boyitilishi zarurligi isbotlangan;

kichik sintaksis tizimining nazariy asoslari tilshunoslikda shakllangan atomar predikat vositasida sintaktik derivatsiya sodir bo'lishi, sodda yasama va qo'shma, juft, takroriy, murakkab so'zlar, turg'un so'z birikmalari, turg'un so'z birikmalari shaklidagi frazemalar va parafrazalarning mikrosintagmatik munosabatga kirishishi jarayonidagi lisoniy belgilari ochib berilgan;

kichik sintaksis voqelangan modellar tizimida sintaktik munosabatlarni shakllantiruvchi sifatlovchi-sifatlanmish, qaratqich-qaralmish, aniqlovchi-aniqlanmish, hol-hollanmish, to'ldiruvchi-to'ldirilmish, kesim-undalma, ega-kesim kabi so'zlarning sintagmatik aloqasi dalillangan;

so'z ichidagi mikrosintaktik munosabatlarda leksik derivatsiya orqali sintaktik munosabat voqelanishi, kichik sintaksisda tayanch vosita operator yetakchilik qilishi ochib berilib, ularning o'ziga xos leksik-semantik va derivatsion tamoyillari asoslangan;

sintagmatik va sintaktik munosabatlar sintaktik aloqani shakllantiruvchi belgi tarzida bir-biridan farq qiluvchi sintaktik birliklar maqomini belgilovchi til hodisalari hisoblanishi, sintagmatik munosabat hosil qilinishi uchun tilning ikki

tarkibi bir paytda, bir soʻz ichki tuzilishi jarayonida, sintagmatik qatorda gorizontaal chiziq boʻylab birin-ketin qoʻshilishi, sintaktik munosabat esa yasama soʻzlar doirasida morfemalar, qoʻshma soʻzlar doirasida soʻzlar, gap doirasida ham soʻzlar va matn doirasida gaplar orasida sodir boʻlishi ochib berilgan;

qoʻshma soʻzlar semantik derivatsion jihatdan koʻchma maʼno ifodalashi orqali ibora boʻlib kelishi aniqlanib, ular frazeologiyalashgan lugʻaviy birliklar hisoblanishi, birgina soʻzlar misolida perefraza kabi frazeologiyalashgan lugʻaviy birliklar hosil qilinishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik sintaksis voqelanishining derivatsion xususiyatlari sodda, qoʻshma, murakkab soʻz yasash tizimi va turgʻun soʻz birikmalari, qoʻyilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi oʻzbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy maʼlumot berishi, oʻzbek tili sintaksisi boʻyicha tadqiqotlar yaratishda manba boʻlib xizmat qilishi, oʻzbek tili morfologiyasi, oʻzbek tili sintaksisi, tilshunoslik, korpus lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter tilshunosligi fanlarini oʻqitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

tilshunoslikning boshqa sohalari orasida kichik sintaksisning tutgan oʻrni, tilning lugʻat tarkibini boyitishda va oʻzbek tili milliy korpusini shakllantirishda material va manba sifatida xizmat qiladi;

oʻzbek tili morfologiyasi, oʻzbek tili sintaksisi, tilshunoslik, korpus lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter tilshunosligi bilan bogʻliq fanlardan darslik va oʻquv qoʻllanmalar yaratish uchun sintaktik munosabatlar paketlarining shakllanishi haqida ham material va manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi unda foydalanilgan ilmiy yondashuv va usullar, muammoning aniq qoʻyilishi, xulosalarning qatʼiyligi, shuningdek, tadqiqot yoʻnalishi va tadqiqot metodlari, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, nazariy maʼlumotlarning ilmiy adabiyotlardan va tahlilga tortilgan misollarning oʻzbek tilining orfografik, ikki tillik, izohli va frazeologik lugʻatlaridan, shuningdek, turkiy tillari lugʻatlaridan olinganligi, tahlillar, ilmiy-amaliy va ilmiy nazariy xulosalarning tasnifiy, tasviriy va qiyosiy-tarixiy metodlari bilan asoslanganligi, nazariy fikr, tavsiya hamda takliflarning amaliyotga keng joriy qilinishi, bildirilgan fikr va mulohazalarning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻzbek tilshunosligini, jumladan, sintaksis sohasini muayyan ilmiy qarashlar va faktlar bilan boyitadi, dissertatsiyaning tadqiq usullaridan tilshunoslikning boshqa boʻlimlarini ilmiy jihatdan oʻrganishda nazariy asos boʻlib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan oliy taʼlim muassasalarining filologiya fakultetlarida, filologik yoʻnalishdagi institutlarda tilshunoslik nazariyasi, umumiy tilshunoslik, oʻzbek tilining morfologiyasi, oʻzbek tilining sintaksisi kabi va akademik litseylarda maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, maʼruza matnlari tayyorlashda manba vazifasini bajaradi, shu fanlardan yangi darslik va oʻquv

qo‘llanmalarni yaratish hamda takomillashtirishda amaliy manba va nazariy asos vazifasini o‘taydi, shuningdek, ilmiy xodim va tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy muhim manba bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. So‘z ichidagi mikrosintaktik munosabatlarda atomar predikat orqali sintaktik munosabat voqelanishining derivatsion xususiyatlari va kichik sintaksis tizimining nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tilshunosligida so‘z va matn ham sintaksisning tekshiruv obyektiga kiritilgandan so‘ng sintaksisning lingvistik maydoni kengayganligi sababli, katta va kichik sintaksisga bo‘lib o‘rganish orqali an‘anaviy tilshunoslikdagi qarashlarni derivatsion, izomorfizmik, presuppozitsiya aspektidagi yondashuvlar bilan boyitilishi bo‘yicha berilgan ilmiy xulosa va tavsiyalaridan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016-yillarda bajarilgan FA-F1-GOO3 raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” fundamental loyiha nazarini qismini yoritishda foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 1-martdagi 151/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada kichik sintaksis voqelangan modellar tizimi sintaktik tahlil etishga erishilgan;

kichik sintaksis tizimining nazariy asoslari tilshunoslikda shakllangan atomar predikat vositasida sintaktik derivatsiya sodir bo‘lishi, sodda yasama va qo‘shma, juft, takroriy, murakkab so‘zlar, turg‘un so‘z birikmalari, turg‘un so‘z birikmalari shaklidagi frazemalar va parafrazalarning mikrosintagmatik munosabatga kirishishi jarayoni, asosiy nominativ birlik sifatidagi morfo-sintaktik lisoniy belgilarini yoritishda berilgan ilmiy xulosa va tavsiyalaridan FA-F1-005 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyiha nazarini qismida foydalanilgan (O‘zR FA Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 1-martdagi 75/1-son ma‘lumotnomasi). Natijada xalq og‘zaki ijodi namunalarini sintaktik, semantik jihatdan tahlil etishga erishilgan;

kichik sintaksis voqelangan modellar tizimida sifatlovchi-sifatlanmish, qaratqich-qaralmish, aniqlovchi-aniqlanmish, hol-hollanmish, to‘ldiruvchi-to‘ldirilmish, kesim-undalma, ega-kesim kabi so‘zlarning sintagmatik aloqasi bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy natijalardan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-Tempus-JPCR Aston Universiti DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masrers Programmes” loyihasida magistratura talabalari uchun tashkil etilgan onlayn kurslarda o‘quv materiallari sifatida foydalanildi (SamDCHTI rektorining 2022-yil 22-fevraldagi 304/30.02.01-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlarning tahlil qismida kichik sintaksis derivatsiyaning ish mexanizmlarini tashkil etishi aniqlandi;

so‘z ichidagi mikrosintaktik munosabatlarda leksik derivatsiya orqali sintaktik munosabat voqelanishi, kichik sintaksisda tayanch vosita operator yetakchilik qilishi ochib berilib, ularning o‘ziga xos leksik-semantik va derivatsion tamoyillari shakllanishiga oid ilmiy qarashlar va xulosalardan uni xalqarolashtirish maqsadida 561624-YERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP:

“O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasining amaliy qismida foydalanilgan (SamDCHTI rektorining 2022-yil 22-fevraldagi 303/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada kichik sintaksis muammosi xususidagi ilmiy nazariy tadqiqotning o‘zbek tili materiallari asosida ilk bor yoritilishi bilan tilshunoslikning mazkur sohasini xalqarolashtirishga katta hissa qo‘shilgan;

sintagmatik va sintaktik munosabatlar bir-biridan farq qiluvchi sintaktik birliklar maqomini belgilovchi til hodisalar hisoblanishi, sintagmatik munosabat hosil qilinishi uchun tilning ikki tarkibi bir paytda, bir so‘z ichki tuzilishi jarayonida, sintagmatik qatorda gorizontaal chiziq bo‘ylab birin-ketin qo‘shilishi, sintaktik munosabat esa yasama so‘zlar doirasida morfemalar, qo‘shma so‘zlar doirasida so‘zlar, gap doirasida ham so‘zlar va matn doirasida gaplar orasida sodir bo‘lishi xususiyatlariga oid ilmiy qarashlari va xulosalaridan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqot loyihasining nazariy qismida foydalanilgan (Loyiha rahbari hamda SamDCHTI rektorining 2022-yil 25-fevraldagi 332/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada sintagmatik va sintaktik munosabatlar zamonaviy yo‘nalishda tahlil etishga erishilgan;

qo‘shma so‘zlar semantik derivatsion jihatdan ibora bo‘lib kelishi aniqlanib, ular frazeologiyalashgan lug‘aviy birliklar hisoblanishi, birgina so‘zlar misolida perefraza kabi frazeologiyalashgan lug‘aviy birliklar derivatsiyasini ochib berishga doir tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo‘limi qoshidagi “Sadoqat” ijodiy to‘garagi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo‘limining 2022-yil 4-apreldagi 36-son ma’lumotnomasi). Shuningdek, Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Uyimdagi xazina”, “Ta’lim va taraqqiyot” turkum dasturlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 4-apreldagi 01-12/148-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur to‘garak seminarlarining va ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta’minlangan hamda yangi manbalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 24 ta, jumladan, 18 ta respublika hamda 6 ta xalqaro konferensiyada ma’ruza qilinib, aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 49 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan 1 ta monografiya, O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta, shu jumladan, 9 respublika, 6 xorijiy ilmiy jurnallarda, shundan 3 ta ilmiy maqola Scopus jurnalida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy to‘rt bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 236 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kichik sintaksis muammolari va ularning o'rganilish holati”** deb nomlangan birinchi bobida bugungi zamonaviy tilshunoslikda sintaksisni katta va kichik deb ataluvchi ikki qismga bo'lish masalasi haqida fikr va mulohazalar aytilayotgan bo'lsa ham, masala yechimi hali amalga oshirilgani yo'qligi asoslangan. Biroq bunga kundan-kunga ehtiyoj ortib bormoqda. Gap shundaki, tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davrida so'z sintaksisi, matn sintaksisi kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, amaldagi sintaktik tahlilning yaroqsiz ekanligini ko'rsatmoqda. Boshqacha aytganda, amaldagi sintaktik tahlil so'z sintaksisi masalalari talqiniga ham, matn sintaksisi masalalari tadqiqiga ham o'zgarish qilishi tabiiydir. Chunki so'z sintaksisida ham, matn sintaksisida ham gap bo'laklari tushunchasidan umuman foydalanilmasligi xususida so'z boradi va, o'z navbatida, ushbu bob uch paragrafga bo'linadi. Birinchi paragraf **“Jahon tilshunosligida kichik sintaksis muammolari va ularning o'rganilish holati”** deb nomlanadi. So'z sintaksisi masalalari talqinida ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va h. k. tushunchalar qo'llanilmaydi. Mazkur tushunchalar xuddi shuningdek, matn sintaksisi masalalari tadqiqi uchun ham ahamiyatsizdir. Zero, so'z komponentlari doirasida ham, matn komponentlari doirasida ham ega yoki kesim tushunchalari uchun o'rin yo'q. Ammo bu bilan biz so'z va matn sintaksisi qonun-qoidalari mushtarak demoqchi emasmiz. Ular turlicha lingvistik maqomlarga egadir. So'z sintaksisida asosiy e'tibor nominativ birliklarga qaratilsa, matn sintaksisida nominativ-kommunikativ birliklar diqqat markazida bo'ladi. Ana shuning o'zi ham sintaksisni ikkiga: kichik va katta sintaksislarga bo'lish masalasini kun tartibiga qo'yish uchun, bizningcha yetarli asos bo'la oladi. Shunday bo'lgach, ularning tekshiruv obyektlarini belgilab olish masalasi uchun ham zarurat tug'iladi.

Jahon tilshunosligi taraqqiyotining hozirgi bosqichida yasama so'z, so'z birikmasi, kompozitsiya, va barcha nominativ birliklarni zamonaviy tilshunoslikning integrativlik, antropotsentriklik, muloqot, madaniyatga asoslanganlik, diskursivlik, dialogiklik, derivatsion, morfo-sintaktik, struktur-semantik, izomorfizmik va presuppozitsion aspektidagi yondashuvlar kabi asosiy yo'nalishlarning rivojlanishi fonida turli holatda ko'rib chiqadilar.

Rossiya tilshunosi L.L.Iomdin o'zining qator ishlarida rus tilining mikrosintaktik hodisalarini tadqiq qilgan. Olim ko'p ishlarini grammatika va lug'at chorrahasida joylashgan kichik sintaksis hodisalarini batafsil o'rganishga

bag'ishladi⁷. Xususan, uning ishlarida kichik sintaksis butun tilning sintaksisini tasvirlashga da'vo qilmasligi ilmiy asoslangan. L.L.Iomdin kichik sintaksisning chegaralarini belgilab berishga alohida e'tibor qaratgan. Mikrosintaktik hodisalari lingvistik hududi hisoblanuvchi tilshunoslikning sintaksis, semantika va leksikografiya bo'limlari doirasidagi tadqiqotlarida ifodalandi. Shunday qilib, kichik sintaksisning lingvistika sohasiga kirib kelganining va uning tilshunoslar tomonidan ham tadqiq etilganining guvohi bo'lamiz.

Mikrosintaktik birliklarining tavsifini berish orqali u yerda mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldiradi, sodda yasama va qo'shma so'zlar, ularning derivatsion xususiyatlari, qo'shma so'z yasalishi bilan bog'liq sintaktik muammolar, murakkab so'zlar va so'z birikmalari qolipidagi sintagmalar (maqollar, matallar, idiomalar, aforizmlar)ning sintaktik shakllanishi, turg'un so'z birikmalari, turg'un so'z birikmalari shaklidagi frazemalar va parafrazalarning sintaktik shakllanishini zamonaviy qarashlar asosida tahlil qilgan. Bu tadqiqotlar nazariy jihatdan amerika olimi C.Fillmor⁸ ilmiy iste'molga kiritgan konstruksiyalarning grammatik g'oyalarga yaqin bo'lib, amerika olimi A.Goldberg⁹ va rus olimi E.V.Raxilina¹⁰ tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarga asoslangan.

Ma'lumki, Word Grammar (so'z grammatikasi) tilshunoslikda yangi oqim va nazariya bo'lib, u 1980-yillardan boshlab Richard Gudson tomonidan ishlab chiqilgan. Word Grammar sintaksis modeli sifatida boshlangan bo'lib, uning eng o'ziga xos xususiyati til birliklarining bog'liqlik (aloqadorlik) grammatikasidan foydalangan holda sintaksisga yondashuv bo'lib, unda gapning tuzilishi deyarli butunlay alohida so'zlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi va sintaksis birinchi navbatda lisoniy unsurlarni birlashtirish tamoyillaridan iborat deb qaraladi¹¹.

Nemis olimi K.Byulerning fikricha, inson tilida belgilarning hukmron vazifasi-tasvirlash vazifasi (Darstellungsfunktion) bo'lib, har bir birikma murakkab ramziy ma'noga ega so'zni ifodalaydi (weltansicht)¹².

⁷Iomdin L.L. Большие проблемы малого синтаксиса. // Труды международной конференции по компьютерной лингвистике и интеллектуальным технологиям. Протвино 2003. –С. 216-222., Иомдин Л.Л. В глубинах микросинтаксиса: один лексический класс синтаксических фразем. // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии. Труды Международной конференции. Бекасово, 4-8 июня 2008 г. Издво РГГУ. Москва 2008. –С. 178-184., Иомдин Л.Л. Некоторые микросинтаксические конструкции в русском языке с участием слова что в качестве составного элемента. Словенски филолог LXIX, 2013, 137-147., Иомдин Л.Л., Иомдин Б.Л. Выражение валентностей русских предикатных существительных в некоторых микросинтаксических конструкциях. // Тезисы докладов заседания Комиссии по изучению грамматических структур славянских языков Международного комитета славистов. Изд-во философского факультета ун-та, –Любляна 2014, 31-32.

⁸ Fillmore Ch.F. The Mechanisms of Construction Grammar. In: Proceedings of the Fourteenth Annual Meeting of the Berkeley Linguistics Society 1988. –P. 35-55.

⁹ Goldberg A. A Construction Grammar Approach to Argument Structure. University of Chicago Press, Chicago 1995. –271 p.

¹⁰ Рахилина Е.В. Лингвистика конструкций. Азбуковник, Москва 2010. –584 с.

¹¹ Kensei Sugayama Word Grammar: New Perspectives on a Theory of Language Structure, et al., 2006. ISBN 0-8264-8645-2.

¹² Каранг: Бюлер К. Теория языка. Репрезентативная функция. Перевод с немецкого. Общая редакция, и комментарии док. фил. наук. Т.В.Булыгиной. 2-е издание. –М.: Издательская группа «Прогресс», 2000. –С.5.

Yana bir nemis sharqshunosi K.Bryugman, K.Byulerning fikriga tayanib, kompozitsiyalarni “so‘z birlashuvi” (worteinigung) yoki “birlashgan so‘z” (Einigungswort) deb ataydi¹³.

Rus tilidagi murakkab so‘zning nazariy va amaliy masalalarini akademik V.V.Vinogradov bilan bir qatorda mashhur rus tilshunos olimlari E.A.Zemskaya, Ye.S.Kubryakova, A.I.Smirnitskiy, A.I.Moiseyev va boshqalar tadqiq qilgan. Taniqli tilshunos Ye.S.Kubryakova so‘z yasashini grammatika yoki leksikologiyaning bir qismi sifatida tan olish g‘oyasini inkor etib bo‘lmaydigan faktlar bilan asoslab, ular orasidagi farqqa ishora qiladi¹⁴.

Ye.S.Kubryakova quyidagilarni alohida ta’kidlagan edi. “Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik sintaksis – bu so‘z birikmalari sintaksisi bo‘lib, asosiy maqsadi nominativ birikmalar hosil qilishdir”¹⁵.

Ye.S.Kubryakovaning mazkur mulohazalariga to‘liq qo‘shilish mumkin, zero, so‘z birikmalari yohud sintagmalar komponentlari munosabatlarini (gap, murakkab sintaktik qurilmalar, abzats kabi sintaktik strukturalar komponentlari aloqalaridan farqlanadigan munosabatlarni) nopredikativ bog‘lanish tarzida kichik sintaksisning tekshiruv obyektlari jumlasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Eslatib o‘tilgan gap, murakkab sintaktik qurilma, abzats kabilar komponentlarining sintaktik munosabatlarini o‘rganish esa katta sintaksisning vazifasi hisoblanadi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Kichik sintaksisning aktual masalalari tadqiqi*” deb nomlanib, unda kichik sintaksisning aktual masalalari tahlil qilinadi. Tilshunoslik fanning hozirgi taraqqiyoti davrida sintaktik hodisalar tadqiqi bobida ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Buning dalili sifatida sintaksisni katta va kichik deb ataluvchi ikki qismga bo‘lish masalasining ilmiy asoslanayotganini ham ko‘rsatish mumkin. Ravshanki, masala tavsifiga bu tarzda yondashish an’anaga aylanib qolgan sintaktik qoidalarimizga ba’zi o‘zgarishlar kiritishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, hozirgi kungacha sintaktik tadqiqotlarning oxirgi bosqichi gap materialida yakun topar edi. Biroq bugungi kunda matn lingvistikasining ilmiy asoslanganligi o‘z-o‘zidan sintaksisning tekshiruv obyektlarini kengaytirishi, sintaktik tadqiqotlarning maksimal obyekti gap emas, balki undan katta nutq birligi orqali belgilanishini taqozo etmoqda. Buning natijasida albatta, sintaksisning tekshiruv obyektlari soni va salmog‘i kengayib ketishi tabiiydir. Ana shularni hisobga olib, jahon tilshunosligida katta sintaksis bilan bir qatorda kichik sintaksis va uning tekshiruv obyektlarini ilmiy asoslash borasida ham tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, so‘z birikmalarining fe’lli guruhi nutqda qo‘llanilganda ularning komponentlari predikativ munosabatda bo‘ladi. Masalan, *Ukam universitetda o‘qiydi* gapida qatnashayotgan *universitetda o‘qimoq* birikmasini sof nominativ birlik deya olmaymiz. Bu o‘rinda u nominativ –

¹³ Каранг: Бюлер К. Ўша асар. 313-бет.

¹⁴ Кубрякова Е.С. Что такое словообразование? –М.: Наука, 1965. – С.4-5.

¹⁵ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности.–М., 1968. –С.107.

kommunikativ vazifa bajarmoqda. N.Turniyozovning qayd etishicha, fe'lli so'z birikmalari otli birikmalardan ana shu xislatlariga ko'ra farqlanadi¹⁶.

Keltirilgan misolda so'z birikmasining birinchi komponenti (universitetda) an'anaviy hol, ikkinchisi esa kesim vazifalarida kelmoqda. Bunday sintaktik vazifalarni o'rganish esa kichik sintaksisning emas, balki katta sintaksisning vazifasi sanaladi. Ana shulardan kelib chiqib, biz so'z birikmalarining kichik sintaksisda nutqdan tashqari holatidagi shaklini o'rganish lozim deb o'ylaymiz. Ye.S.Kubryakova esa nopredikativ qurilmalarni, shu jumladan, so'z birikmalarini ham nutqning bir qismi tarzida o'rganish lozimligini aytadi¹⁷.

Mazkur fikrga, nazarimizda, qo'shilish qiyin ko'rinadi. Chunki nutqda (gapda) so'z birikmalari komponentlari katta sintaksisning ehtiyojlarini qoplash uchun xizmat qiladi. Fikrimiz dalili uchun Ye.S.Kubryakovaning quyidagi so'zlarini keltiramiz: "Katta sintaksis sentensial sintaksisdir. Uni "kichik", nosentensial jumla ichidagi sintaktik guruhlarni (sintagmalarni) tashkil etuvchi sintaksisga qarama-qarshi qo'yish mumkin"¹⁸.

Turg'un so'z birikmalarining esa yo'rig'i boshqa. Ular nutqda ham, nutqning tashqarisida ham qariyb o'zgarmaydi: *fanlar akademiyasi, turmush o'rtog'i, dars jadvali* va h.k. Umuman olganda, bunday birikmalarning ham nutqdan tashqaridagi holatini kichik sintaksisda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki gap sathida ular katta sintaksis uchun xizmat qilishi mumkin.

Endi sintagma masalasiga kelsak, tilshunoslikda mazkur tushuncha faqat nutqda shakllanadi, tilda qo'llanishga tayyor holda bo'lgan biror bir sintagma yo'q¹⁹, degan fikrlar mavjud. Biroq sintagmani fonetik hodisa sifatida tushunadigan bo'lsak, mazkur mulohazalarni o'rinli deyishimiz mumkin. Agar uni sintaktik hodisa tarzida tushunsak, bir so'zli sintagmalarning tildagi tayyor ko'rinishlarini bemalol kuzata olamiz.

Biz qa'tiy ravishda kichik sintaksisning tekshiruv obyekti sifatida so'z birikmalarining nutqdan tashqari holatini olamiz. Biroq ayni paytda ham so'z birikmalari komponentlari o'rtasida yashirin predikativlik alomati kuzatilishi mumkin. Masalan: *Universitet talabasi*. Bu o'rinda, albatta, sof nominativ birlik berilmoqda. Ammo shunday bo'lsa ham, birikmada quyidagicha tasavvur etilishi mumkin bo'lgan yashirin predikativlik alomatini ko'ra olamiz: *Bu talaba universitetda o'qiydi*.

Darhaqiqat, yasama so'zlar tarkibida ro'y beradigan o'zak (negiz) va affiks morfemalar o'rtasidagi mikrosintagmatik munosabatlar talqini kichik sintaksisning asosiy tekshiruv obyektlaridan biri bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, kichik sintaksis uchun bir so'zli sintagma (*bo'yinbog'*), so'z birikmasi maqomidagi sintagma (*dumaloq stol*), turg'un so'z birikmalari (*turmush o'rtog'i*), parafrazalar (*dala malikasi*), frazemalar (*yuragi yorilmoq*) komponentlari o'rtasidagi sintagmatik munosabatlarni o'rganish ham ahamiyatlidir.

¹⁶ Турниёзов Н. Сўз бирикмаси синтактик деривацияси // Ўзбек тили деривацион синтаксиси. –Тошкент, 2011. 31-б.

¹⁷ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. –М., 1968. –С.107.

¹⁸ Қаранг: Кубрякова Е.С. Ўша асар. Ўша бет.

¹⁹ Ғулумов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, 1987. 23-б.

Kichik sintaksisning tekshiruv obyektlarini yasama va qo'shma so'zlar, turg'un so'z birikmalari orqali belgilash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi "*Kichik sintaksisning ilmiy asoslanishi*" deb nomlanib, unda kichik sintaksisning ilmiy asoslanishi tahlil qilinadi. Kichik sintaksisning ilmiy asoslanishi katta sintaksisning fanimiz taraqqiyotiga uzviy bog'liq holda ilmiy asoslanganligi bilan aloqadordir. Tilshunoslik fanining keyingi yillar mobaynida salmoqli yutuqlarga erishganligi natijasi o'laroq, nutq lingvistikasi ilmiy asoslandi. Bu esa, o'z navbatida, matn lingvistikasining ham tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida faoliyat ko'rsatishiga yo'l ochdi.

Matn lingvistikasi muammolari tadqiqotlar kun tartibiga qo'yilgach, dastlab matnning lingvistik maqomini aniqlab olish tilshunoslar diqqatini o'ziga jalb etdi. Unga ko'ra, matnning sintaktik yoki uslubiy hodisa ekanligi bobida olimlar o'rtasida bahs va munozaralar boshlandi va hozir ham davom etmoqda. Ba'zilar uni sintaktik hodisa deb bilsalar, ayrim tilshunoslar uslubiy hodisa sifatida talqin etmoqdalar. Xususan, matn maqomida keluvchi abzats haqida tilshunoslarning fikrlari bir xil emas. Bunday nomushtaraklikni E.A.Referovskaya uslubiy hodisa²⁰, T.I.Silman sintaktik hodisa²¹ deb talqin etganlarida kuzatish mumkin. Bunday munozara o'zbek tilshunosligida ham ko'zga tashlanadi. N.Turniyozov uni sintaktik hodisa tarzida tadqiq etayotgan bo'lsa²², M.Yo'ldoshev stilistik hodisa deb biladi²³. Bizningcha, abzats sintaktik hodisadir. Buning dalilini uning tarkibiga kiruvchi gaplarning o'zaro sintaktik aloqasida, bundan tashqari, ustpredikativlik belgisida ko'ramiz²⁴. Ammo bu bilan abzatsni uslubiy jihatdan o'rganish noo'rin demoqchi emasmiz. Aslida, uning shakllanishida so'zlovchi ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ko'rinadiki, bugungi tilshunoslikda sintaktik tadqiqotlarining tekshiruv obyekti kengayib bormoqda. Hozirgacha sintaksisning tekshiruv obyektlari so'z birikmalari va gap sanalib kelingan bo'lsa, ayni paytda murakkab sintaktik qurilmalar, parsellyativ hamda ilovali qurilmalar va abzats ham sintaktik hodisalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, sintaksisni ikkiga – kichik va katta sintaksislarga bo'lishni taqozo etadi. Shunday bo'ladigan bo'lsa, kichik sintaksisda gapgacha bo'lgan sintaktik muammolarni, katta sintaksisda esa gap va undan katta nutq birliklari, muammolarini o'rganishga to'g'ri keladi va bunday taqsimot, bizningcha, ilmiy jihatdan asosli bo'ladi.

Sintaksisni katta va kichik deb nomlanuvchi ikki qismga bo'lish maqsadga muvofiq bo'libgina qolmay, buning uchun katta ehtiyoj ham sezilayotgani tilshunoslik adabiyotlarida o'tgan asrning 80-yillarida ta'kidlana boshlagan edi. Fikr dalilini Ye.S.Kubryakovaning tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Uning fikriga ko'ra, katta sintaksis, asosan, gap va uning lingvistik tabiatini o'rganish bilan shug'ullanishi, kichik sintaksis esa gap ichida shakllanuvchi sintagmalarning, shuningdek, so'z birikmalarining sintaktik xususiyatlarini tadqiq etish bilan

²⁰ Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. –Л., 1983. 90-б.

²¹ Сильман Т.И. Проблемы синтаксической стилистики. –Л., 1967. 112-б.

²² Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. –Самарқанд, 2005. 35-б.

²³ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. –Тошкент, 2008. 77-б.

²⁴ Хайруллаев Х. Нутк бирликларининг поғонали муносабати. –Самарқанд, 2008. 67-б.

shug‘ullanishi lozim. Boshqacha aytganda, katta sintaksis sentensional xarakterli bo‘lib, u hukm ifodasi bilan bog‘liq qurilmalarni, kichik sintaksis esa bu bilan bog‘liq bo‘lmagan qurilmalarni tadqiq etmog‘i kerak²⁵.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi *“Leksik derivatsiya – kichik sintaksis muammosi”* deb nomlanib, unda leksik derivatsiya – kichik sintaksis qonuniyati asosida tahlil qilinadi. Mazkur bob uch paragrafga bo‘linadi. *“So‘z haqida umumiy ma‘lumot”* nomli birinchi paragrafda kichik sintaksis tushunchasi so‘z yasalishi derivatsiyasi nuqtai nazardan o‘rganiladi. Bunda so‘z tushunchasi nafaqat tilshunoslarni, balki faylasuflarni, psixologlarni va boshqa fanlar mutaxassislarini ham azaldan qiziqtirib kelgan. Fikr dalilini antik davrlarda so‘z va u atagan narsa xususida bo‘lgan Yunoniston faylasuflarining fikr va mulohazalarida ko‘rishimiz mumkin. So‘z haqida jahon tilshunosligida turfa xil nazariy qarashlar mavjud. Bu borada olimlar yakdil fikrda emas, shuningdek yagona va mukammal ta‘rifi hanuzgacha yaratilgani yo‘q. So‘z tilning markaziy, yadroviy, birligi sanaladi. F.Do‘.Sossyur so‘z haqida shunday deydi: so‘zdagi muhim narsa tovushning o‘zi emas, balki shu so‘zni qolgan barcha so‘zlardan farqlashga imkon beradigan tovushiy farqlardir, chunki aynan shular ma‘no tashuvchilar hamdir²⁶. Nazariyotchi olim R.Rasulov so‘z har qanday so‘z birikmasi, gap va matn kabi sintaktik butunliklarning asosi, birlamchi material sanaladi... So‘z – o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fonetik, grammatik va semantik jihatlarning jami degan mukammal va betakror ta‘rifni bergan²⁷. Sintaksischi olim A.Berdialiyev so‘z tildagi boshqa barcha hodisalarga nisbatan muhimroq va ahamiyatliroq. Chunki tildagi hodisalarning bari so‘z tufayli, so‘z vositasida o‘z lisoniy qiymatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ularning barchasi so‘z uchun xizmat qiladi²⁸ – deb aytgan. M.N.Peterson umuman so‘zning qoniqarli ta‘rifi yo‘q, bunday ta‘rifni berish ham qiyin; so‘z – shunday sodda tushunchaki, unga biror mantiqiy ta‘rif berish ham mumkin emas, deydi²⁹. T.Bushuy so‘z ko‘p o‘lchovli til birligi bo‘lib, uning ta‘rifi uning turli xususiyatlarini hisobga olishi kerak deb hisoblaydi³⁰.

Hozirgi tilshunoslikda so‘z va u orqali berilgan tushuncha masalasi har qancha dolzarb bo‘lsa ham, bu sohada hali aniqroq to‘xtamga kelinganini qayd eta olmaymiz. Biz faqat nisbatan mavhum ifodali *denotat va signifikat* tushunchalari orqali tadqiqot ishlari olib borayapmiz, xolos.

Bu o‘rinda denotat so‘z bog‘lanayotgan narsani anglatrsa, signifikat denotat bilan so‘zni bog‘layotgan tushunchani anglatadi.

Yuqorida denotat va signifikat tushunchalarini mavhum ifodali deb aytdik. Buning asosiy sababi shundaki, ba‘zi so‘zlar bir necha signifikatni o‘z mazmuniy doirasiga oladi. Biroq har doim denotat yolg‘iz ma‘noli bo‘ladi, zotan, bir paytning o‘zida bir denotatga bir necha signifikat bog‘lanishini tasavvur etish qiyin.

²⁵ Кубрякова Е.С. Типы языковых значений. Семантика производного слова, –М., 1981. –С.107.

²⁶ Соссюр, Фердинанд Дю. Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –136- б.

²⁷ Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент 2017. 204-205-б.

²⁸ Бердиалиев А. «Подшо»ликка чек кўйган «почча»лар (*Сўзлар ҳаётидан лавҳалар*). Илмий –оммабоп нашр (ўзбек тилида). Хўджанд, 2017. 3-б.

²⁹ Петерсон М.Н. Современный русский язык. – М., 1929, стр. 27.

³⁰ Бушуй Т. Язык в истории развития человеческой мысли. –Т.: Фан, 2011. –С. 28.

Soʻzning boshqa minimal til birliklaridan farqli jihati yana shunda koʻrinadiki, unda har doim *denotat*, *signifikat* tushunchalari bilan uzviy bogʻliq boʻlgan maʼno ifodalashini koʻramiz. Fonemada bunday xususiyat umuman kuzatilmaydi, morfemada, masalan, oʻzak morfemada soʻzga yaqinlik koʻzga tashlansa ham, unda denotat-signifikat munosabati kuzatilmaydi. Demak, voqelikdagi narsa-predmetlar nomini toʻgʻridan-toʻgʻri atashi bilan soʻz alohida ahamiyat kasb etadi.

V.G.Gak soʻzni tilning asosiy birligi sifatida izohlaydi. Bu haqda aytilgan uning quyidagi fikri ibratlidir: “Soʻz” tushunchasini boshqasi bilan almashtirishga urinishlar natija bermadi. Zero “soʻz” tushunchasining maʼnosi aynan tilning turli aspektlariga xos belgilarini oʻzida mujassam etganligidadir: tovush, semantik va grammatik. Soʻz – tilning asosiy birligi boʻlib, u soʻzlovchilari uchun psixolingvistik voqelik hisoblanadi³¹.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “*Soʻz sintaksisi muammolari*” deb nomlanadi. Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davriga qadar sintaksisning asosiy tekshiruv obyektlari soʻz birikmasi va gap hisoblanib kelindi. Mazkur birliklarning sintaksisda oʻrganilishiga asosiy sabab ularning soʻzlar munosabatiga asoslanishidir. Biroq soʻz birikmasi tarkibida soʻzlarning oʻzaro munosabatga kirishuvi moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari doirasida roʻy bersa, gap (jumla) tarkibidagi soʻzlar biri ikkinchisi bilan gap boʻlaklari qonun-qoidalari asosida munosabatga kirishadi. Bu esa, oʻz navbatida, soʻz birikmalari va gap doirasida soʻzlarning oʻzaro munosabatlarini oʻrganish anʼanaviy tilshunoslikda bir xil qonun-qoidalarga asoslanganligini koʻrsatadi. Ammo shunisi xarakterliki, soʻz birikmalarining sintaktik shakllanishi ham, gapning sintaktik shakllanishi ham soʻzlar munosabatiga asoslanadi.

Hozirgi tilshunoslik manbalarida tilning asosiy birliklari sifatida fonema, morfema va soʻz oʻrganilmoqda. Biroq antik tilshunoslikda tilning soʻzdan kichik birliklari, masalan, morfema tabiati oʻrganilmas edi. Tilning soʻzdan katta birligi gap esa mantiqiy birlik deb hisoblanar edi. Mazkur vaziyat XVIII asrgacha davom etdi. Shu bois M.V.Lomonosov oʻzining „Rossiya grammatikasi“da gapni grammatik birlik deb hisoblamagan edi³².

Bugungi tilshunoslikda eng kichik grammatik birlik sifatida morfema, eng katta grammatik birlik tarzida esa matn, yaʼni diskurs koʻrsatilmoqda. S.N.Kuznetsovning qayd etishiga koʻra, grammatika quyidagi toʻrt sathni oʻziga mujassam etadi: morfematik sath, soʻz sathi, gap sathi va diskursiv sath. Olim morfematik va diskursiv sathlarni alohida, soʻz bilan gapni esa qorishtirib alohida sath tarzida taʼkidlaydi va shu asosda diskursiv grammatika, sintaksis va morfologiyalarni tilshunoslikning mustaqil boʻlimlari deb izohlaydi³³.

Umuman olganda, morfologiya bilan sintaksis oʻrtasiga katta toʻsiq qoʻyib boʻlmaydi. Shu bois Boduen de Kurtene bu haqda mulohaza yuritganida quyidagilarni toʻgʻri taʼkidlaydi: „Sintaksis ikkinchi darajali morfologiyadir. Buni gap morfologiyasi deyish mumkin. Morfologiya tom maʼnoda morfemalarning

³¹ Гак В.Г. Слово //Лингвистический энциклопедический словарь. –М:1990. –С. 466.

³² Каранг: Кузнецов С. Теоритическая грамматика датского языка. Синтаксис. –М., 1984. –С. 36.

³³ Каранг: Кузнецов С. Кўрсатилган асар, 36-бет.

soʻz tarkibidagi munosabatlarini, sintaksisda esa soʻzlarning murakkab ifodalarini, grammatik gaplar tarkibidagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganamiz”³⁴.

Bizningcha, gapning sintaktik sxemasini til birligi tarzida tavsiflash ilmiy asosli boʻla olmaydi. Chunki til birliklari asosan fonema, morfema va soʻzdir. Toʻgʻri, turgʻun birikmalar, parafrazalar, frazeologik iboralar ham til birliklari jumlasiga kiradi, ular shu bois tilimizning lugʻat tarkibida tayyor holda yashaydi. Biroq shunday boʻlishiga qaramasdan, ularning qurilish materiali soʻzdir. Gapning sintaktik sxemasi esa til sistemasi ichida yashamaydi.

Soʻz sintaksisi tushunchasining ilmiy asoslanishi, asosan, yasama soʻzlar materialida oʻz ifodasini topdi. Chunki yasama soʻzlar leksik derivatsiya mahsuli boʻlib, bunda ularning strukturasi tadqiqot uchun muhim omil boʻlib xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi “*Sodda yasama soʻzlar va ularning derivatsion xususiyatlari*” deb nomlanadi. Yasama soʻzlar strukturasi ham komponentlarining sintagmatik munosabati mavjudligini koʻramiz. Yasama soʻz strukturasi murakkab xarakterli boʻlib, bunda bir paytning oʻzida mikrosintagmatik munosabatning ikki xil koʻrinishini kuzatamiz. Birinchidan, morfemalar sathidagi sintagmatik munosabat, ikkinchidan, morfemalarning bir-biri bilan ketma-ket bogʻlanishi. Mazmuniy jihatdan ham bunda murakkablik koʻzga tashlanadi. Chunki har qanday yasama soʻz ortida sentensial xarakterli jumla strukturasi yashirin holda yashaydi. Albatta, jumla (gap) predikativ qurilma sanaladi. Buning taʼsiri esa yasama soʻzda ham implitsit holda namoyon boʻladi. Boshqacha aytganda, yasama soʻzning ichki mantiqiy strukturasi atomar predikat bilan bogʻliq belgilar mavjuddir.

Bizningcha, Ye.S.Kubryakovning sintaksisni ikkiga ajratish xususidagi fikri bilan qoʻshilish mumkin. Lekin katta va kichik sintaksislarning tekshiruv obyektlari haqidagi mulohazasi notugʻaldir, zotan, unda katta sintaksisning asosiy birligi-matn haqida fikr bildirilmagan. Kichik sintaksisning tekshiruv obyekti esa nopredikativ birikmalar tarzida umumiy holda berilgan.

Mazkur bobda biz ana shu kichik sintaksisning asosiy tekshiruv obyektlaridan biri yasama soʻzlar haqida, aniqrogʻi ularning til sathidagi sintagmatik munosabati xususida mulohaza yuritamiz.

Ravshanki, yasama soʻzlar tilimizning lugʻat tarkibida salmoqli oʻringa ega. Biroq ular, tub soʻzlardan farqli ravishda, oʻz sathlaridan morfemalarning sintagmatik munosabatini taqozo etadi. Fikr dalili uchun quyidagi misollarga murojaat etamiz: *tuzdon, gulzor, paxtakor, oʻyinchi*.

Keltirilgan soʻzlarning barchasi yasama boʻlib, ularda oʻzak morfema bilan affiks morfemalarning sintagmatik munosabatini koʻramiz. Mazkur sintagmatik munosabat asosida kichik sintaktik aloqalar shakllanmoqda. Boshqacha aytganda, bu oʻrinda soʻz sathida sintaktik munosabat vujudga kelmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, sintaksisning dastlabki qadami morfologiya ichida tugʻilishidan dalolat beradi.

G.A.Smironovning yuqorida eslatib oʻtilgan gʻoyasiga asoslangan holda, *suvchi* yasama soʻzining ichki mazmuniy-grammatik strukturasi eʼtibor

³⁴ Бодуэн де Куртенэ. Избранные труды по общему языкознанию, ч.2. –М., 1963. –С174.

beradigan bo‘lsak, quyidagilarni qayd eta olamiz: suv – obyekt, -chi ijrochi. Bunda ijrochi obyekt orqali aniqlanmoqda. Ammo ijrochi tushunchasi bevosita ish harakati bilan bog‘liq, ish harakati mavjud emas ekan, ijrochi ham bo‘lmaydi. Demak, ayni paytda suvchi so‘zining ichki ma’nosida harakat ifodasi bilan bog‘liq quyidagi tushunchalarning barchasi mavjud: *ekinlarni sug‘ormoq, sug‘orish bo‘yicha mutaxassis bo‘lmoq; suv keltirmoq; suv sotmoq; suvda qutqarish ishlari bilan shug‘ullanmoq*³⁵. Mazkur harakat ma’nolarining qaysi biri nutqda qo‘llanishidan qat’i nazar, -chi morfemasi ijrochi, ya’ni subyekt vazifasini bajaraveradi. Ana shu asosda suvchi so‘zining ichki strukturasi obyekt+harakat ijrochi sintaktik munosabatini qayd etish mumkin.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi “*Qo‘shma so‘z derivatsiyasi – kichik sintaksis muammosi*” deb nomlanib, unda qo‘shma so‘z derivatsiyasi tadqiqi o‘z ifodasini topadi. Uchinchi bobning birinchi paragrafida “*Qo‘shma so‘zlar va ularning derivatsiyasi bilan bog‘liq sintaktik muammolar*” mavzusi yoritiladi. Ushbu bo‘limda qo‘shma so‘zlar ham so‘z yasalishining alohida bir ko‘rinishini taqozo etishi haqida fikr yuritilgan. An’nanaga ko‘ra mazkur so‘z yasalish usuli kompozitsiya yoxud sintaktik usul deb atalib kelinmoqda.

Hozirgi o‘zbek tili materialida ham qo‘shma so‘z mavzusi ancha mukammal o‘rganilgan. Bunda, ayniqsa, qo‘shma otlar va qo‘shma sifatlar yasalishi masalasiga jiddiy e’tibor qaratilganini ko‘ramiz. M.Mirzayev, S.Usmonov va I.Rasulovlarning “O‘zbek tili” (1966) darsligida qo‘shma ot va qo‘shma sifatning komponentlari o‘rtasidagi sintaktik (mikrosintagmatik) munosabat qay tarzda shakllanishi va ularning turlari, ayniqsa, yaxshi izohlab berilgan.

Darslikda ko‘rsatilishicha, qo‘shma otlar komponentlari o‘rtasida quyidagi sintaktik munosabatlar qayd etiladi:

1. Aniqlovchi - aniqlanmish: *oqqush, uchburchak.*
2. Ega - kesim: *Soykeldi, qoryog‘di.*
3. To‘ldiruvchi - kesim: *muz yorar, otboqar.*
4. Hol - kesim: *bosvoldi, olibsotar.*
5. Kesim (gap) - undalma: *urto‘qmoq, yoriltosh.*

Qo‘shma sifatlarda:

1. Ega - kesim: *Baxtiyor.*
2. Aniqlovchi - aniqlanmish: *nimjon, nimrang.*
3. To‘ldiruvchi - kesim: *tinchliksevar.*
4. Hol - kesim: *ertapishar*³⁶.

Bu o‘rinda shu narsa harakterliki, ayni paytda kichik sintaksisda o‘rganilishi lozim bo‘lgan aniqlovchi - aniqlanmish, to‘ldiruvchi - kesim, hol - kesim, kesim - undalma tarzida sintaktik munosabatlarga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu juda muhimdir, zotan, so‘z sathida bu singari sintaktik munosabatlar, hatto ega bilan kesim o‘rtasidagi munosabat mavjudligi bugungi kunda so‘z sintaksisining ilmiy asoslanishi uchun imkoniyat yaratmoqda.

Aslini olganda, bunday sintaktik munosabatlar katta sintaksis tekshiruv obyekt – gap sathida ham kuzatiladi. Biroq, kichik sintaksis tekshiruv obyekt –

³⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент, 1981 (2-жилд). 81-б.

³⁶ Қаранг: Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Тошкент, 1966, 109-118-бетлар.

yasama soʻzlarda masala tavsifi statik harakterli ekanligi bilan ajralib turadi. Gap komponentlarining sintaktik munosabatlari esa har doim dinamik harakterlidir.

Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, qoʻshma soʻzlar semantik jihatdan soʻz birikmalariga yaqin turadi. Shu bois koʻp paytlarda muayyan bir qoʻshma soʻzni olganimizda ikkilanib qolamiz. Bu haqda tilshunoslik adabiyotlarida ham aytilib kelinmoqda A.I.Smirnitskiyning quyidagi soʻzlariga eʼtibor qarataylik:”Qoʻshma soʻzlarni soʻz birikmalaridan farqlash masalasi aksariyat hollarda qiyinchilik tugʻdiradi. Masalan, *blackboard* soʻzida (uning ichki strukturasi – A.T.) “qora” va “taxta” (doska) soʻzlarining mazmuniy ifodalari yoʻqotilmagan. Biroq u qoʻshma soʻz boʻlgani uchun ayni paytda “*sinf doskasi*” mazmuniy ifodasini bermoqda va alohida semantik yaxlitlikni tashkil qilmoqda. Qora rangli taxta ifodasini berayotgani yoʻq. Uni “*sinf doskasi*” deb tushunamiz. Sinf doskasi qora emas, balki koʻk, malla va h.k rangda boʻlganda ham mazkur soʻz aynan shu maʼnoda, yaʼni *sinf doskasi* maʼnosida qoʻllanaveradi. Biroq ayni paytda *black board* tarzidagi soʻz birikmasini shakllantirish ham mumkin edi. Ammo bunday vaziyatda qoʻshma soʻzning mazmuniy salmogʻiga putur yetkazilgan boʻlardi³⁷.

Qoʻshma soʻzlarning yasaliş tarixi har xil. Ular soʻz tarkibidagi komponentlar oʻrtasidagi munosabat va oʻxshash soʻzlarning birikkan soʻzlarga munosabati kabi asosiy xususiyatlariga koʻra farqlanadi³⁸.

Uchinchi bobning “***Qoʻshma soʻzlar va ularning derivatsion xususiyatlari***” deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida qoʻshma soʻzlarning derivatsion xususiyatlari tadqiq qilingan. Kichik sintaksisning eng markaziy boʻgʻinlaridan biri, qoʻshma soʻz hisoblanadi. Qoʻshma soʻzni mikrosintaksisning mahsuli sifatida tadqiq qilish oʻrinli boʻladi. Atoqli olim E.Benvenist har bir gapning tuzilishida soʻz, qoʻshma soʻz va boshqa birliklar ishtirok etadi. Qolaversa, qoʻshma ot mustaqil gapning oʻzginasidir degan edi: eng kichik birliklarning qoʻshilishi mikrosintaksisdir. Qoʻshma otning har bir turi sintaktik jihatdan mustaqil gapning qaysidir turining oʻzgarishi sifatida oʻrganilishi kerak³⁹.

Ye.V.Sevortyaning koʻrsatishicha, qoʻshma soʻzlar sintaktik xususiyatini yoʻqotish va maʼno jihatdan qismlarining birikib ketish darajasi bir xil emas. Ayrim hollarda bu jarayon toʻliq rivojlangan, ayrimlarida sintaktik xususiyatni yoʻqotish toʻliq rivojlanmagan, lekin semantik birikish hali tugallanmagan, ayrimlarida esa soʻz birikmalarining sintaktik va semantik qayta qurilishi qoʻshma soʻz elementlarining fonetik jihatdan birikib ketishi, natijada avvalgi soʻz birikmasi boʻlaklari oʻrtasidagi butun chegaraning batamom yoʻqolib ketishi bilan tugallanishi mumkin, (*bultur – bir yil oldin, Apsalom – Abd – ul Salom kabi*)⁴⁰.

Bugungi kunda soʻz yasaliş hodisasi leksik derivatsiya deb yuritilmoqda. Biroq masala tavsifiga derivatsion nuqtai nazardan yondashiladigan boʻlsa, u holda anʼanaviy *soʻz yasaliş asosi*, *yasovchi formant* kabi terminlardan emas, balki derivatologiyaning oʻzining *operand*, *operator* va *derivat* deb ataluvchi

³⁷ Каранг: Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. –М. 1956. –С. 117.

³⁸ Бушуй Т.А. Язык и культура. –Т., 2017.–С.130.

³⁹ Бенвенист Э. Синтаксические основы именного сложения. –В кн.: Бенвенист Э. Общая лингвистика. –М., Прогресс, 1974. –С.241.

⁴⁰ Севортян Э.В. К соотношению грамматики и лексики в тюркских языках. Сб. Вопросы теории и истории языка. –М., 1952, стр. 318-319.

terminlaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Zotan, jahon tilshunosligida derivatologik tadqiqot ishlarida ana shu terminlar qo'llanilmoqda.

Odatda, so'z yasalishi hodisasi leksik derivatsiyani taqozo etadi. Biroq bu haqda yuqorida bildirilgan mulohazalarimizda uni sintaktik karakterli deb atadik. Bunga so'zning ichki strukturasiidagi morfemalarning sintaktik munosabati imkon yaratadi. Ammo konversiya usuli bilan so'z yasalishida leksik derivatsiya emas, balki semantik derivatsiya ahamiyat kasb etadi. To'g'ri, ayni paytda muayyan bir leksemaning funksiyasiga ko'ra boshqa leksemaga o'tishini ko'ramiz. Biroq bu bilan uni leksik derivatsiya mahsuli deya olmaymiz. Chunki ayni paytda semantik salmoqning o'zgarishi ustuvor ahamiyatga egadir.

Nol operator tushunchasi kompozitsiya usuli bilan ifodalangan yasama so'zlarda ham ahamiyat kasb etadi. Bunday yasama so'zlar agar morfologik vositalar ishtirokisiz shakllangan bo'lsa, ularning komponentlari o'rtasidagi bog'lanish, asosan, semantik distribusiyaga yordamida sodir bo'ladi: *belbog'*, *g'o'zapoya*, *karnay gul*.

Berilgan misollarning ikkitasida qo'shma so'z komponenti, ajratilmay yozilganini ko'ramiz. Keyingi misolda ajratilib yozilmoqda. Lekin shunday bo'lsa ham, mazkur qo'shma so'zlarning har uchalasining ham derivatsion hususiyatlari mushtarakdir. Boshqacha aytganda, ayni paytda derivatsiya nol operatori faollik ko'rsatmoqda. Eslatib o'tilgani singari, bu o'rinda semantik distribusiyaga ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Semantik distribusiyaga o'zaro munosabatga kirishayotgan so'zlarning mazmuniy jihatlari bilan bog'lanadi. Mazmunan bir qurshovga sig'maydigan so'zlar hech qachon derivatsion munosabatga kirisha olmaydi: *tosh o'tin*, *loy ko'mir*, *qum uy*.

Ko'rinadiki, keyingi misollarda komponentlari semantik qurshov tashkil eta olmaganligi uchun qo'shma so'z derivatsiyasi voqealanmaydi. Bunday vaziyatda so'z derivatsiyasi nol operatorlari bo'lganligi uchun quyidagi formuladan foydalanamiz: $N_1(X=O)N_2$ agar qo'shma so'z komponentlari fe'l, sifat va hokazo turkumlardan tashkil topgan bo'lsa, formulada ham o'zgarish sodir bo'ladi: *borish - kelish*, *oq - qora*, *past - baland*: $V_1(X=O)V_2$, $A_1(X=O)A_2$.

Quyidagi misollarda: *belbog'*, *g'o'zapoya*, *suvilon*, operator mavjud, biroq u yashirin holda (belgisiz) kelmoqda deb o'ylashimiz mumkin: *Bel(ning) bog'i*, *g'o'za(ning) poyasi*, *suv(ning) iloni*. Biroq mazkur qo'shma so'zlar, so'z birikmalaridan farqli ravishda, bugungi tilimizda komponentlarning to'liq statik xarakter kasb etishiga erishgan va shu bois bunday qo'shma so'zlarni nol operatorli deb atamoqdamiz.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish kerakki, ba'zi qo'shma so'zlar komponentlari sintaktik munosabati muayyan operatorga tayanadi: *so'z boshi*, *tog'u tosh*. Bu o'rinda keltirilgan misollarning har ikkalasida ham derivatsiyaning real operatorlar vositasida voqelanayotganini ko'ramiz: *so'z(ning) bosh(i)*, *tog'(u) tosh*. Birinchi misolda egalik affiksi, ikkinchi misolda esa -u yuklamasi (bog'lovchi vazifasida) operator funksiyasini bajarmoqda.

Shuni ham aytish lozimki, barcha yasama so'zlarda bo'lganidek, qo'shma so'zlarda ham yaxlitlangan ikkilamchi nominativlik belgisini kuzatamiz. Chunki ularning komponentlari munosabatidan derivatsion jarayonda alohida-alohida

ma'no ifodalovchi operandlar emas, balki yangi mano ifodasi shakllanadi. Boshqacha aytganda, bu o'rinda alohida denotatlar munosabatidan yangi denotat va bir paytning o'zida yangi signifikat vujudga keladi. Ana shu asosda qo'shma so'zlarni ham ikkilamchi nominativ birlik deb bilamiz.

Aksariyat qo'shma so'zlarda so'z birikmasining va gapning yashirin belgilarini ko'ramiz. Bu esa qo'shma so'zlarda ham atomar predikativlik belgisi mavjudligidan dalolat beradi: *bog'i baland, balandlikdagi bog', bu bog' balandda joylashgan.*

Uchinchi bobning "**Murakkab so'zlar va ularning derivatsion xususiyatlari**" deb nomlanuvchi uchinchi paragrafida murakkab so'zlarning derivatsion xususiyatlari tadqiq qilingan. Mikrosintaksis nuqtai nazaridan tilimizni sinchkovlik bilan o'rganib chiqsak, juda ko'p murakkab so'zlar mavjud, ularning kamida uchdan bir qismi ot va sifat so'z turkumiga tegishli, ammo, fe'l so'z turkumi orasida juda kam uchraydi. So'z birikmalarining hosil bo'lishi va universallashtiruvchi an'anasi, ya'ni ularning bir so'zga birlashishi so'z tarkibida namoyon bo'ladi. Masalan, *Davlat Xizmatlari Markazi > darichaga, xalq qabulxonasi iborasi > portalga, sinf kitobi iborasi > kitobga, Zulfiya mukofoti sovrindori > zulfiyachiga, masofaviy ish > onlayn, an'anaviy dars > oflayn* so'ziga birlashadi. Zaliznyak bu an'anani tilning ekspressiv funksiyasi bilan bog'laydi⁴¹. J.Eltazarov bu hodisa haqida "Tildagi tejamkorlik tamoyili va qisqaruv" asarida quyidagi fikrlarni aytadi: Jamiyatning beto'xtov rivoji doimiy ravishda yangi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Yangi tushuncha – yangi so'z, yangi ibora demakdir. Til tarkibida yangi birliklarning ko'payishi bilan go'yo ekonomiyaga zamin tayyorlanadi; yo yangi kirib kelgan birlikni yohud avvaldan qo'llanib kelinganini qisqartirish (bunda imtiyoz ko'proq birinchisiga beriladi), bu bilan kommunikatsiyaga qulaylik yaratish jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanayotgan til zaminidagina vujudga keladi⁴². Haqiqatdan ham til soddalikni yaxshi ko'radi, ixchamlikka intiladi, murakkablikni yoqtirmaydi. Shu sabab ham *Zulfiya mukofoti sovrindori* deyishdan ko'ra *zulfiyachi* deyish nutq uchun juda qulay. Bu misolda J.Eltazarov ta'kidlaganidek, birinchi so'zga imtiyoz berildi va pressupozitsion yondoshuv asosida *zulfiyachi* deb qo'ya qolindi, *mukofot, sovrindor* so'zlari esa implitsit tarzda ko'rinmas holatga o'tib, pressupozitsion aspekti jihatdan bir so'zga birlashib, o'sha so'z tarkibida namoyon bo'ldi.

Kichik sintaksis qoidalariga binoan, taxminan aytish mumkinki, har bir murakkab so'zning orqasida so'z birikmasi mavjud bo'ladi. Hattoki bir so'zning orqasida ham frazaga teng ma'no mujassam bo'ladi. Bunda morfologik frazeologiyalashuv hodisasi kuzatiladi. So'z ustasi Abdulla Qahhor o'zining mashhur "Bemor" hikoyasida *yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi* degan maqolni ishlatadi. Bu misolda birgina *yo'g'on* so'zi *boy odam* degan, *ingichka* esa *kambag'al odam, o'ta qashshoq odam* degan ma'nolarni bildiruvchi so'z birikmasiga teng. *Yo'g'on, ingichka* parafrazalarining birgina o'zi esa semantik jihatdan iboraga tengdir. Shuningdek, *yozuvchini – qalamkash* deb ifodalash ham

⁴¹ Каранг:Зализняк А.А. Механизмы экспрессивности в языке, [в:] Смыслы, тексты и другие захватывающие сюжеты. Сб. статей в честь 80-летия И.А.Мельчука. – Москва: ЯСК, 2012. –С. 650–671.

⁴² Элтазаров Ж. Тилдаги тежамкорлик тамойили ва қисқарув. –Самарқанд, 2004. 21-б.

periferik birlik hisoblanib *soʻz ustasi* parafrasasining sinonimidir. Oʻzbek tilshunosligida morfem-morfologik frazeologiyalashuv atamasidan foydalanilmagan boʻlsa-da, yaxlitlanish (ideomotizatsiya) termini ostida morfem-morfologik frazeologiyalashuvga daxldor masalalar xususida ekskurs tavsifidagi maʼlumotlar dastlab A.Berdialiyevning maqolasida uchraydi⁴³. Morfem tarkibi aniq tasavvur etiladigan va soʻz tarkibidan erkin va oson ajraladigan frazeologiyalashgan lugʻaviy birliklar qoʻshma soʻzlar tizimida ham ancha. Masalan, “*zarpechak*” qoʻshma soʻzi “*zar*” va “*pechak*” qismlariga erkin ajraladi. Bu soʻzning frazeologiyalashuviga uning tarkibidagi “*zar*” qismining koʻchma maʼnosi sabab boʻlgan. “Umr yoʻldoshi, oilada jufti” maʼnosidagi “*yostiqdosh*” (*yostiq+dosh*)... kabi soʻzlar maʼnosi bilan bogʻliq frazeologiyalashuvda ham leksemaning tarkibini morfem qismlarga ajratish va uni qoʻshma soʻzlarning hosil boʻlish mexanizmi talabida tavsiflash mumkin⁴⁴. T.Bushuy bunday mikrosintaktik hodisani soʻz birikmasining universallashtiruvchi deb nomlaydi: Murakkab soʻzlarda semantikaning noaniqligi birinchi komponent (sifat), feʼl komponentining leksik maʼnosiga, ularning semantik (soʻz yasovchi) tarkibining oʻziga xosligiga bogʻliq... Murakkablanish jarayoni – soʻz birikmasining bir soʻzga birlashishi, yaʼni soʻz birikmasining universallashtiruvchi⁴⁵.

Demak, murakkab soʻzlar muammosi nafaqat soʻz yasalishi, balki soʻz birikmalarining sintaksisi va semantikasi sohasida ham mavjud. E.Benvenist bu yondashuvni qoʻllab-quvvatlaydi. Shu sabab ham quyidagicha yozadi: Murakkab nomlarning paydo boʻlishiga sabab boʻlgan turtki morfologiyadan kelib chiqmagan, uning ichida hech qanday zarurat taqozo etmagan; boshlangʻich nuqtasi predikatsiya turlari bilan sintaktik konstruksiyalar edi. Aynan sintaktik model morfologik murakkab nomning paydo boʻlish imkoniyatini ochib beradi va uni transformatsiya orqali hosil qiladi⁴⁶.

Kichik sintaksis obyekti hisoblanuvchi murakkab soʻzlarda ikki qismlilik atamani belgilashning asosiy mezonini uning bir butun shakli hisoblanadi, unda, asosan, soʻzning tarkibiy qismlaridan ikkinchi qismi morfologik tuzilishga tegishli boʻladi.

Agar murakkab soʻzlarning ikkala qismi ham morfologik tuzilishga ega boʻlsa, unda asosan bunday birliklar murakkab yoki qoʻshma soʻzlar emas, balki soʻz birikmasi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning toʻrtinchi bobi “*Soʻz birikmalari va ularning derivatsion xususiyatlari*” deb atalib, “*Soʻz birikmalari qolipidagi sintagmalarning sintaktik shakllanishi*”, “*Turgʻun soʻz birikmalari sintaktik shakllanishi*” hamda “*Turgʻun soʻz birikmalari shaklidagi parafrazalarning sintaktik shakllanishi*” nomli paragraflarni oʻz ichiga oladi. Birinchi paragrafda soʻz birikmalari qolipidagi sintagmalarning sintaktik shakllanish jarayoni yoritiladi. Mikrosintaktik munosabatlar doirasida soʻz birikmasining lingvistik tabiatini oʻrganish bobida

⁴³ Қаранг: Бердиалиев А. Сўз морфем таркиби фразеологиялашувининг икки тури ҳақида // "World of Philology" Scientific Journal / ISSN 2181-3620 Volume 1 Issue 1 / August 2022. 8-6.

⁴⁴ Бердиалиев А. Ўша асар. 8-б.

⁴⁵ Бушуй Т.А. Язык в системной структуризации. –Т., 2014.–128 с.

⁴⁶ Қаранг: Бенвенист Э. Синтаксические основы именного сложения. –В кн.: Бенвенист Э. Общая лингвистика. –М., Прогресс, 1974. –С. 254-255.

jahon tilshunosligida bugungi kunga qadar ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Biroq, mazkur ishlarning ilmiy ahamiyatini to‘liq e‘tirof etgan holda, shuni ham qayd etish lozimki, bu sohada hamon tadqiqatlab masalalar kam emas. Ular jumlasiga so‘z birikmalarining ta‘rifidan boshlab, lingvistik tabiati bilan bog‘liq ko‘pgina izohtalab masalalarni kiritish mumkin. Biz bu ishimizda turg‘un so‘z birikmalarini kichik sintaksis obyekti sifatida o‘rganishni maqsad qilib oldik.

Turg‘un so‘z birikmalari matn segmentlari tarzida butunligicha olinadi. Ular sintaktik tahlil qilish jarayonida bo‘laklarga bo‘linmaydi. Yaxlitligicha bir gap bo‘lagi vazifasida keladi⁴⁷.

Sir emas, so‘z birikmalarining ta‘rifi bobida V.V.Vinogradov g‘oyasiga asoslanib keldik. Unga ko‘ra, so‘z birikmasi kamida ikki mustaqil so‘zning o‘zaro tobeklik asosida bog‘lanishini taqozo etishi asosiy tamoyil sifatida belgilanadi. Shubhasiz, bu ta‘rifga tayaniladigan bo‘lsa, komponentlari teng bog‘lanuvchi birikmalar nazardan chetda qoladi. Ammo jahon tilshunosligida analogik tabiatli so‘z birikmalari mavjudligi to‘liq tan olinganligini kuzatamiz.

Yuqoridagilardan tashqari, an‘anaviy grammatikalarimizda so‘z birikmasi gapning qurilish materiali maqomida kelishi ta‘kidlanadi. Bizningcha, mazkur masala ham izohtalabdir. Bu haqda N.Turniyozov quyidagilarni to‘g‘ri qayd etadi: “...so‘z birikmasi hech qachon gapning qurilish materiali bo‘lolmaydi. Chunki u nutqda gap bilan bir paytning o‘zida vujudga keladi. Bu, albatta, so‘z birikmasi gapning qurilish materiali bo‘lishi haqidagi amaldagi xulosaning asossiz ekanligini ko‘rsatadi”⁴⁸.

So‘z birikmasining nutqdan tashqaridagi holati uni nominativ birlik sifatida ko‘ra olishimiz uchun imkon yaratadi va shundagina fe‘lli birikmalarni nopredikativ sintaktik qurilma maqomida tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi. Fikr dalili uchun quyidagi misollarga murojaat etaylik: *bog‘da ishlamoq, maktabda o‘qimoq*.

Ayni paytda berilgan so‘z birikmalarini sof nominativ birliklar sifatida ko‘ramiz, ularda predikativlik alomatlari kuzatilmaydi; *bog‘da ishlash, maktabda o‘qish*. Bu o‘rinda birikma komponentlarini yashirin predikatsiya (atomar predikativlik) doirasida bog‘lanishi xususida ham so‘z yuritib bo‘lmaydi. Biroq ular o‘rtasida sintaktik munosabat to‘liq shakllanganligini e‘tirof etamiz, zero, derivatsion nuqtai nazardan har ikki misolda ham *-da* affiksi operator vazifasini bajarmoqda va so‘z birikmasi modelidagi hosila strukturalarni vujudga keltirmoqda. Lekin mazkur derivatsion jarayonni dinamik xarakterli deb bo‘lmaydi, u statik xarakterlidir. Chunki sintaktik aloqa hosila strukturalarining ichidagina ahamiyat kasb etmoqda, ular komponentlarining nutq jarayonida boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirishuvi imkoniyatiga ega. Ana shu bois so‘z birikmalarining nutqdan tashqaridagi holatini o‘rganish kichik sintaksisning vazifasi ekanligini alohida qayd etamiz. O‘tli so‘z birikmalari lingvistik tabiati o‘ziga xosligi bilan fe‘lli birikmalardan bir muncha farq qiladi. Buni quyidagilarda kuzatamiz: *universitet xiyoboni, chiroyli manzara*.

⁴⁷ Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik, –Samarqand: SamDCHTI nashri, 2022. –81-bet.

⁴⁸ Турниёзов Н. Сўз бирикмаси ва гап бўлаклари ҳақида баъзи мулоҳазалар // Роман ва герман тилшунослигининг долзарб муаммоллари. –Тошкент, 2009. 15 б.

Keltirilgan soʻz birikmalarida nominativlik maqomi mavjudligi oʻzini toʻliq namoyon etmoqda. Ammo ularning ichki strukturasi eʼtibor qaratadigan boʻlsak, u holda xiyobonning universitetga tegishli ekanligini, manzaraning chiroyli koʻrinishini aks ettiruvchi predikativ maʼno ham mavjudligini kuzatish qiyin emas. Ravshanki, otli birikmalar nutqda ham, nutqdan tashqari holatida ham derivatsion maqomini oʻzgartirmaydi. Biroq ular nutqda qoʻllanilar ekan, gapning muayyan boʻlagi vazifasini bajaradi va sintaktik tahlil jarayonida biz ana shu narsaga jiddiy eʼtibor qaratamiz, zotan, katta sintaksisning talabiga koʻra ana shu narsa ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ana shulardan kelib chiqib, otli birikmalarning lingvistik tabiatini oʻrganish masalasi ham kichik sintaksisning tekshiruv obykti sanalishini dalillash mumkin. Ammo bu orqali soʻz birikmalarining katta sintaksis bilan umuman aloqasi yoʻq demoqchi emasmiz. Gap tarkibida qoʻllanilar ekan, ularning komponentlari nutqda muayyan vazifa bajarishi shubhasizdir. Buni inkor etish qiyin. Biroq bu vazifa soʻz birikmalari komponentlarining gap boʻlaklari maqomida kelishi bilan bogʻliq boʻladi.

Ikkinchi paragrafda turgʻun soʻz birikmalari sintaktik shakllanishi xususida soʻz boradi. “Turgʻun soʻz birikmasi” atamasi tilshunoslik fanining universal atamalariga tegishli boʻlib, leksikografiya, frazeologiya, sintaksis sohalarida qoʻllaniladi.

“Hozirgi oʻzbek va turk tillarida soʻz birikmasi sintaktik derivatsiyasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan Mustafo Chetin erkin va turgʻun soʻz birikmalari lingvistik hududini belgilash borasida quyidagilarni yozadi: “Tarkibli atama qolipida shakllangan turgʻun birikmalarning sintaktik faolligi va funksional qimmatini ular nutqda real qoʻllanilishi jarayonida belgilanadi. Bunda turgʻun birikmalar, shu jumladan, tarkibli atamalar ham gapning (jumlaning) qurilish materiali sifatida faollik koʻrsatadi va bu bilan erkin birikmalardan keskin farqlanadi. Chunki, erkin soʻz birikmalari gapning qurilish materiali boʻla olmaydi”⁴⁹.

Turgʻun holatdagi komponentlar munosabatiga asoslangan soʻz birikmalari hududi ancha keng boʻlib, ular jumlasiga sof turgʻun birikmalardan tashqari, qoʻshma atamalar, turgʻun nomlar, parafrazalar, tarkibli atamalar, soʻz birikmasi qolipidagi turgʻunlik belgisiga ega frazeologik iboralar, murakkab terminlar va ularning idiomatik maʼnoli turlari, frazemalar, metaforik xususiyatga ega boʻlgan birliklar ham kiradi. Bular kichik sintaksisda oʻrganiladi⁵⁰.

Tadqiqotchi S.E.Shodiyev “Turgʻun soʻz birikmalari, terminlar, tarkibli terminlar borasida ayrim mulohazalar” nomli maqolasida bunday birliklarni koʻp olimlar frazeologik ibora tarzida tushunishlarini koʻrsatib, aslida ular boshqa-boshqa hodisalar ekanligini taʼkidlaydi: Ilmiy manbalarda ham tom maʼnodagi turgʻun soʻz birikmalari bilan frazeologik iboralarning keskin farqlanmaganini koʻramiz,⁵¹—deb yozadi. Fikrini davom ettirib, A.V.Dudkinov har qanday turgʻun

⁴⁹ Четин М. Ҳозирги ўзбек ва турк тилларида сўз бирикмаси синтактик деривацияси // Номзодлик диссертация автореферати. –Тошкент, 2002, 14-б.

⁵⁰ Turobov A. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik, –Samarqand, 2022. –81-82 bet.

⁵¹ Шодиев С.Э. Турғун сўз бирикмалари, терминлар, таркибли терминлар борасида айрим мулоҳазалар. Хорижий филология. №2, 2016 йил 72-б.

birikmani ham frazeologik ibora tarzida talqin etadi va buning natijasida *bilish nazariyasi, frazeologik chatishma, trigonometrik funksiya, signal sistemasi* kabi murakkab (tarkibli) termin va tarkibli atamalarning barchasi frazeologik ibora tarzida izohlashlariga⁵² qo'shilmasliklarini aytadi. Darhaqiqat, turg'un so'z birikmalari, terminlar, tarkibli terminlar kichik sintaksis obyekti hisoblangani bilan boshqa-boshqa, o'z ilmiy nazariy asoslari va lingvistik chegaralariga ega bo'lgan birliklardir.

Shunday qilib, tilshunoslar ko'pincha turg'unlikni, turg'un birikmaning asosiy xususiyati deb bilishadi, lekin ular bu tushunchani turli yo'llar bilan belgilaydilar. Uning "tor" va "keng" tushuncha ma'nosidagi ikki xil talqinini farqlash lozim. Birinchisi, V.V.Vinogradov va N.M.Shanskiy asarlarida keltirilgan bo'lib, ular turg'unlikni barqarorlik bilan tenglashtirishga moyil bo'lib, ikkinchisi esa shakl va mazmun jihatidan birlikning oddiy yaratilishi hisoblanadi; bunda turg'unlik frazeologik birliklarning umumiy xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Frazeolog olim B.Yo'ldoshev ham iborani keng tushuncha ma'nosida izohlaydi va buning natijasida tarkibli atamalar (*Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, iroqi do'ppi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va h.k.*)ni ham frazemalar sifatida talqin etadi⁵³.

Aksariyat hollarda frazema komponentlari orasiga boshqa bir so'z yoki so'zlarni kiritish ham mumkin. Bunday vaziyatda frazemaning sintaktik shakli kengayadi. Biroq bu orqali uning semantik yaxlitligi va qay tarzda frazema maqomiga ega bo'layotgan bo'lsa, o'sha salmoq saqlanadi⁵⁴. Albatta boshqa so'zlarni kiritish orqali frazemaning semantik jihati o'zgaradi, ammo sintaktik shaklida o'zgarish bo'lmaydi. Baribir frazemaaligicha qoladi, ya'ni shakl o'zgaradi, mohiyat esa o'zgarmaydi.

Shu jihatdan olib qaraganda sof turg'un birikmalar frazemalardan uzoqlashib, qo'shma so'zlarga juda yaqinlashadi. Bizga ma'lumki qo'shma so'zlar komponentlari butinligicha bir ma'noni bildiradi. So'z birikmasi va qo'shma so'zlarni bir-biridan farqlashdagi asosiy belgilardan biri ham mana shu holatdir. Ba'zan aynan bir komponent o'rni bilan qo'shma so'z, o'rni bilan so'z birikmasi yoki frazeologik birlik bo'lib keladi. Masalan: *oq uy, oq yo'l, ko'k kabutar va hakoza*. Bu haqda U.Qo'chqortoyev shunday yozadi: So'z birikmasi bilan so'zning bir-biriga munosabati to'g'risida gap ketganda, ular orasiga keskin chegara qo'yib bo'lmasligini alohida ko'rsatib o'tish zarur. So'z birikmasi – qo'shma so'z hosil bo'ladigan asosiy manbalardan biri. So'z birikmasi bilan qo'shma so'z orasida ikki xil baholanadigan hodisalar ko'p uchraydi. Aslini olganda, qo'shma so'z nazariyasining eng zaif nuqtalaridan biri mana shunday ikki xil talqinga yo'l qo'yadigan birikmalar masalasidir⁵⁵. U.Qo'chqortoyevning fikriga o'xshagan nazariy fikrni M.K.Sharipov quyidagi tarzda ifodalaydi: Agar murakkab

⁵² Қаранг: Шодиев С.Э. Ўша асар, ўша бет.

⁵³Қаранг: Йўлдошев Б.Ўзбек тилида конвенционал турғун бирикмаларнинг структурал-грамматик хусусиятлари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, №3, 66-бет.

⁵⁴Шодиев С. Турғун сўз бирикмаларининг синтактик деривацияси. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (Phd) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. 19-бет.

⁵⁵ Қўчқортоев У. Сўз маъноси ва унинг валентлиги (ўзбек тилидаги нутқ феъллари материали асосида). – Тошкент, 1977, –19 б.

grammatik butunlikning – soʻz birikmasining har bir elementi biror murakkab predmet, belgi, voqea-hodisa va shu kabilarning turli tomon va belgilarini alohidadan ifodalasa, u taqdirda soʻz birikmasi boʻladi. Aksincha, murakkab grammatik butunlik butunligicha biror predmet, belgi, voqea-hodisa va shu kabilarni bildirsa, u taqdirda soʻz birikmasi emas, qoʻshma soʻz boʻladi. Masalan, *oq uy* birikmasi ikki xil qoʻllanishi mumkin: *oq uy (u toʻrt qavatli oq uyda yashaydi)* – soʻz birikmasi. *Oq uy (AQSH prezidentining saroyi)* – qoʻshma soʻz.⁵⁶ Koʻrinadiki, M.K.Sharipovning lingvistik qarashlari ham soʻz birikmasi bilan qoʻshma soʻz orasidagi hodisa talqini bobida U.Qoʻchqortoyevning qarashlaridan keskin farq qilmaydi.

Turgʻunlikni u moslik chegarasi, idiomatiklikni esa semantik boʻlinmaslik oʻlchovi sifatida tushunadi. Quyidagi misollar orqali idiomatik iboralarning xususiyatlarini anglashimiz mumkin: *Koʻz yoshlarini toʻkish (yigʻlash)*, *suvga tushgan toshdek (izsiz gʻoyib boʻlish)*, *qaramogʻida boʻlmoq (boqmoq)*, *tuzalib ketmoq (sogʻaymoq)*, *sinovda boʻlmoq (tekshirmoq)* kabi.

Leksik idiomatizm jarayonida grammatik yoʻnalishdagi birikma oʻz mustaqilligini toʻliq saqlaydi. Soʻzning birinchi komponenti nominativ rejada emas, konstruktiv unsur modeli, qismi sifatida modal, zamon yoki tur kabi grammatik maʼnolarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Grammatik idiomatizm soʻz birikmasi komponentlaridagi mustaqil boshlangʻich grammatik maʼnoning yoʻqotilishi bilan nihoyasiga etadi⁵⁷. Grammatik maʼnoning yoʻqotilishi idiomatizmning choʻqqisidir.

“Turgʻun birikma” atamasining taklif etilayotgan tushunchasiga muvofiq, biz uni erkin iboralar va frazeologik birliklar oʻrtasida turuvchi, oʻtish holatini egallagan iboralarning katta qatlamini belgilash uchun ishlatishni tavsiya qilamiz. Ularga biz qoʻshma atamalar, turgʻun nomlar, parafrazalar, tarkibli atamalar, murakkab terminlar va ularning idiomatik maʼnoli turlari frazemalar, metaforik xususiyatga ega boʻlgan birliklar va boshqalarni kiritib oʻrganamiz. Bu hodisalarning barchasi kichik sintaksis boʻlimida oʻrganilishi lozimligini qaʼtiy taʼkidlaymiz.

Uchinchi paragrafda turgʻun soʻz birikmalari shaklidagi parafrazalarning sintaktik shakllanishi xususida soʻz boradi. Paremalar til birligi sifatida tilning qonuniyatlariga boʻysunadi⁵⁸. Periferik birikmalar qadimgi davrlardan beri maʼlum boʻlganiga qaramay, qadimgi til va uslub nazariyotchilari (Aristotel, Kvintilian) tomonidan taʼkidlangan boʻlsa-da, ular uzoq vaqt davomida jahon tilshunosligi tadqiqot markazining eʼtiboridan chetda qoldi.

Odatda, parafrazalar badiiy adabiyot (sheʼr) va publitsistika tilida boshqa hodisalar yoki boshqa “ifoda vositalari” (metafora, qiyos, epitet, allegoriya, giperbola va litota) kabi timsollar bilan bogʻliq holda tasvirlangan yoki koʻrsatilgan. Ular tilning uslubiy vositalaridan biri sifatida baholanadi, u erkin soʻz

⁵⁶ Шарипов М.К. Ҳозирги ўзбек тилида сўз бирикмалари синтаксиси масаласи. –Тошкент, «Фан» нашриёти, 1978, 10-бет.

⁵⁷ Каримова Г. Ўзбек тилида грамматикализация ҳодисаси. –Тошкент, 2010. 18-19 бетлар.

⁵⁸ Маматов А. Фраzeологик бирлик тушунчаси талқини ва тадқиқи. // “XXI asr oʻzbek uslubshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-anjumani materiallari (Samarqand, 2021 yil 29-30-oktyabr). – Samarqand. 2021.400-6.

birikmasi yoki tarkibiy qismlar nomida hukmronlik qiluvchi ma'noga ega bo'lgan butun jumla shaklida tegishli obyekt yoki hodisa nomini almashtirib, ulardan birini ajratib turadi. Parafrazalar obyekt yoki hodisaning xarakterli xususiyatlari, shu bilan muallifning tasvirlangan narsaga subyektiv munosabatini ko'rsatadi.

